

## USTOZ SAN'ATKOR KOMILJON OTANIYOZOV HAYOTI VA IJODI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10968063>

**Abdixodirova Go'zal Erali qizi**

*Chirchiq davlat Pedagogika Universiteti*

*Umumiy pedagogika kafedrasida o'qituvchisi*

**Fayziev Zuxriddin Shamshiddin o'g'li**

*.Chirchiq davlat Pedagogika Universiteti*

*Musiqqa ta'limi 3-kurs talabasi*

**Ismoilov Elmurod Habibullo o'g'li**

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti*

*Musiqqa ta'limi 3-kurs talabasi*

### **Annotatsiya**

*Ushbu maqolada O'zbekiston, Turkmaniston, Qoraqalpog'iston xalq artisti Komiljon Otaniyozov hayoti va ijod faoliyati haqida so'z yuritilgan*

### **Kalit so'zlar**

*maqom, hofiz, hassos sozanda, bastakor, ansambl, san'atkor, suvora.*

### **Аннотация**

*В данной статье рассказывается о жизни и творчестве народного артиста Узбекистана, Туркменистана, Каракалпакстана Комилджона Атанийозова.*

### **Ключевые слова**

*статус, хафиз, чувствительный музыкант, композитор, ансамбль, артист, сувора.*

### **Annotation**

*This article talks about the life and work of the People's Artist of Uzbekistan, Turkmenistan, Karakalpakstan Komiljon Ataniyozov.*

### **Key words**

*status, hafiz, sensitive musician, composer, ensemble, artist, suvora.*

Komiljon Otaniyozov sinfdosh bastakorlar orasida sermahsulligidan tashqari tengi yo'q hofiz, hassos sozanda, ajoyib shoir, doirasi ancha keng, xususan, hayotiy muhim voqea va hodisalarga nisbatan hozir javob ustoz san'atkor edi. Uning mashhur san'atkor bo'lib yetilishida XX asr Xorazm yetuk maqom musiqasining ustoz hofizi, oqsaqoli, Xojixon Boltayevning o'rni katta bo'ldi. Uning ta'siri va

ta'limi asosida Komiljon Otaniyozovning ijrochilik faoliyati, badiiy dunyo qarashi shakllandi va bastakorlik faoliyatiga ham zamin bo'ldi. Komiljon Otaniyozov ijodi juda serqirra bo'lib, u ijro etgan maqom namunalari, baxshichilik va yalla qo'shiqlari bilan o'z tinglovchilari qalbidan chuqur joy olgan. Sozandalik jihatidan ham ustoz o'z yo'lga ega. O'zi ijro qiladigan ashula va qo'shiqlarining kuylari dutor va tor cholg'u asboblari ijro qilingan. Komiljon Otaniyozovning ovoz imkoniyatlari, diapazonining kengligi va ovoz texnikasi ijro qilgan qo'shiqlarining mukammalligida o'z tasdig'ini topgan. Ovoz imkoniyatlarining o'ziga xosligi shundaki har bir qo'shiqqa mos xarakter, ovozda mayda tebranishlar, baland avjli pardalar o'zgacha zeb beradi. Bundan tashqari ustozning chiroyli nolishlari, nafasi eshituvchini o'ziga mahliyo qiladi. Komiljon o'zining iste'dodini to'garak jamoasining chiqishlarida namoyon etishga ulguradi. 13-14 yoshlarida xalq tomonidan yaratilgan podachi ashulasini ijro qilib yurgan.

Otaliqning molin boqdim baharda,

O'zi turmay uyg'otadi saharda.

Pishirgan oshlari ko'zning yoshinday,

Chaqqoq tosh nonini berar naharda.

Zehni o'tkir musiqani nozik tomonlarini his eta biladigan Komiljon Otaniyozov ustozidan tez orada Xorazm Olti yarim maqomi "Rost", "Navo", "Dugoh", "Segoh", "Buzruk", "Iroq" maqomlarini o'zlashtirib oladi.

"Lazgi" ansambli 1957- yilda O'zbekiston, Turkmaniston va Qoraqalpog'iston xalq artisti, bastakor, ustoz san'atkor, Komiljon ota tashabbusi bilan O'zbekiston davlat filarmoniyasi qoshida tashkil qilindi. Komiljon Otaniyozov ansamblni tashkil qilish, xalq orasidan yosh talantlarni izlash, ularni o'rganish, jamoaga jalb qilish ishlarini muvaffaqiyatli ravishda olib bordi, biroq, yangi tashkil topgan ijodiy jamoa oldida keng, sermazmun repertuar tanlash vazifasi turardi.

Ansambl avvalo Xorazm musiqa san'atini o'zida mujassam qiladi, milliy raqslar va qo'shiqlarga salmoqli o'rin beradi. Lekin biz bu bilangina cheklansak repertuar doirasini toraytirgan bo'lamiz. **"Xorijiy xalqlar musiqa san'atining eng yaxshi namunalarini tanlab repertuarga kiritishimiz kerak"** degan edi Komiljon Otaniyozov. Uning fikri qo'llab-quvvatlandi. Katta mehnat, izchil harakatu ijodiy izlanishlar tufayli, rang-barang repertuar yaratildi. Milliy qo'shiqlar va raqslar bilan birga, ozarbayjan, turkman, tojik, uyg'ur, qoraqalpoq xalq qo'shiqlari va raqslari, shuningdek, xorijiy xalqlar: xind, avg'on, eron, arab va boshqa xalqlarning musiqa asarlaridan namunalar o'rganila boshlandi.

Ansamblga O'zbekiston xalq artistlari Kamuna Ismoilova, Quvondiq Iskandarov, Bekjon Otajonov, Otanazar Abduniyozov singari istedadli

san'ankorlar, xalqqa endi tanila boshlagan yoshlar uyushgandi. Ansamblning gastrollari muvafaqqiyatli o'ta boshladi. Respublikamiz bo'ylab qilingan ijodiy safarlar, mehnatkashlar orasida qo'yib berilgan turli konsertlar ansambl jamoasining ijrochilik mahorati uchun sinov bo'ladi.

Tez vaqt ichida ansambl o'zining to'liq jamoasiga ega bo'ldi. Ansamblga Olmaxon Hayitova, Ortiq Otajonov, sharif Sultonov, Gulchehra Ismoilova, Ibodulla Abdullaev kabi istiqbolli yosh kuchlar kirib keldilar. **"Lazgi"** ashula va raqs ansamblining bosib o'tgan oydin yo'li, ijodiy muvaffaqiyatlari Komiljon Otaniyozov o'ziga hos katta ijodiy maktabning asoschisi, muallimi ekanligi natijasidir. Maktab o'z dars xonasiga, talabalariga, kelajagiga ega. U maktabda taxsil ko'rgan, san'atda yangi-yangi kamolot pog'onalariga ko'tarilgan istedadli xonandalar: Xamza nomidagi O'zbekiston davlat mukofotining sovrindori, O'zbekiston xalq artistlari Otajon Xudoyshukurov, O'zbekiston xalq artistlari Kamuna Ismoilova, Bobomurod Hamdamov, San'at Devonov, Olmaxon Hayitova, Ortiq Otajonov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar Sharif Sultonov, Jumanazar Bekjonov, Shermet Fayzullayev kabi o'nlab xonandalar Komiljon Otaniyozovni o'zlariga ustoz deb biladilar.

Komiljon Otaniyozov og'ir hastalikka yo'liqib, 57 yoshida bandalikni bajo keltirdi. Uning musiqiy merosi qisman yaqin o'tmishimizdagi ma'naviy hayotimizning muayyan bo'lagi sifatida tarix sahifalariga ko'chdi. Komiljon Otaniyozov bunyod etgan o'lmas navolar shoxsupadan o'ziga munosib o'rin egallab, el ardog'iga sazovor bo'lmoqda. Komiljon Otaniyozov Xorazm dostonchilik san'atini oshiqona o'zlashtirgan san'atkoridir. bu xislatlar uning asarlarida namoyon bo'la boshlaydi. Dostonlar ta'sirida u **"Kel yor, o'ylanma-o'ylanma"**, **"Guldasta"**, **"Ishqing o'tida devona bo'ldim"**, **"Kerakmas"** kabi musiqiy namunalarni ijro etadi. Bu asarlar Komiljon Otaniyozovning ijrochiligiga xos uslubning shakllanishidan darak beradi. Komiljon Otaniyozov Xorazm vohasining so'nmas ohanglari mujassam etilgan suvoralarini davrining ulkan san'atkori Hojixon Boltayevdan o'rganadi. Suvoralarning asl mohiyati, ohang jozibasini, ularning ijrodagi sir-u sinoatlarini ustoz yordamida egallaydi. **"Yakparda Suvora"**, **"Xushparda suvora"**, **"Kajhang Suvora"**, **"Chapandozi Suvora"** larning ulardan keyin davom ettiriladigan savtlari bilan mukammallik jihatlarini ustoz yordamida o'zlashtiradi. Ijrochilik an'analarni o'zining betakror uslubi bilan boyitadi. Xorazm ijrochilik uslubining butun respublika vohalarida keng ommalashishiga katta hissasini qo'shadi. O'zining suvoraxonlik amaliyotining yuqori cho'qqisiga yetgan pallasida Xorazm suvoralariga bo'lgan ijodiy munosabati namoyon bo'ladi. U suvora ijodiyoti an'analarni davom ettirgan holda, ustozlar sabog'ini mukammal

o'zlashtirib, o'zining ijro uslubiga xos qilib bir namuna, ya'ni o'z "Suvora" sini yaratadi. Ijrochilik amaliyotiga bu asar "Suvorayi Komil" nomi bilan kirib keldi va xalqimiz orasida keng tarqaldi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.S. Xudoyberganov. So'z va soz sohibi. – T., 2007.
2. Mulla Bekjon Rahmon o'g'li, Muhammad Yusuf Devonzoda. Xorazm musiqa tarixchasi. – T., 1998.
- 3.S. Begmatov, 2017 «NISO POLIGRAF», 2017
4. "Komiljon Otaniyozov adabiyoti" - B.Rahimov Xorazm 2017y.
- 5."Komiljon Otaniyozov" F. Zohid 2003y.
- 6."O'zbek eli Komiljondan ayrilmas" - Sh. Qilichev, R.Nur, B.Ro'zimhammad "Istiqlol nuri" 2019y.